



UO'K:94(575.1-17)"1946/1991":664

Oybek ISAYEV,
Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti
E-mail: oybek.isayev@gmail.com

Termiz iqtisodiyot va serviz universiteti professori E.Kabulov taqrizi asosida

OZIQ-OVQAT SANOATI TARIXINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada oziq-ovqat sanoati tarixini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Unda iqtisod tarixi, ijtimoiy tarix, institutsional iqtisod, industrial jamiyat va agrar-industrial yondashuvlarning ilmiy ahamiyati yoritiladi. Ushbu yondashuvlarni uyg'un qo'llash oziq-ovqat sanoati tarixini kompleks va xolis tadqiq etish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi asoslanadi.

Kalit so'zlar: Oziq-ovqat sanoati, iqtisod tarixi, ijtimoiy tarix, institutsional iqtisod, industrial jamiyat, agrar-industrial model, metodologiya, tarixiy tadqiqot.

НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ ОСНОВАХ ИЗУЧЕНИЯ ИСТОРИИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

Аннотация

В статье анализируются теоретико-методологические основы изучения истории пищевой промышленности. Освещается научное значение экономической и социальной истории, институциональной экономики, теорий индустриального общества и аграрно-индустриального подхода. Делается вывод, что их комплексное применение позволяет более глубоко и объективно исследовать историю пищевой промышленности.

Ключевые слова: Пищевая промышленность, экономическая история, социальная история, институциональная экономика, индустриальное общество, аграрно-индустриальная модель, методология, историческое исследование.

SOME REFLECTIONS ON THE THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF STUDYING THE HISTORY OF THE FOOD INDUSTRY

Annotation

This article examines the theoretical and methodological foundations for studying the history of the food industry. It highlights the significance of economic and social history, institutional economics, theories of industrial society, and the agrarian-industrial approach. The study concludes that their combined application provides an important basis for a more comprehensive and objective analysis of food industry history.

Key words: Food industry, economic history, social history, institutional economics, industrial society, agrarian-industrial model, methodology, historical research.

Kirish. Oziq-ovqat sanoati tarixi jamiyat iqtisodiy taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u ishlab chiqarish texnologiyalari, xom ashyo bazasi, mehnat resurslari, iste'mol bozori, davlat siyosati va institutsional boshqaruv tizimlari bilan uzviy bog'liq murakkab tarixiy hodisadir. Shu sababli ushbu sohani o'rganishda faqat tavsifiy tarixiy bayon bilan cheklanib qolish ilmiy jihatdan yetarli emas. Aksincha, oziq-ovqat sanoati tarixini chuqur tahlil qilish uchun turli nazariy va metodologik yondashuvlarni o'zaro uyg'unlashtirish talab etiladi.

Tarixshunoslikda uzoq vaqt davomida sanoat tarixi ko'proq umumiy industrializatsiya jarayonining bir qismi sifatida talqin qilingan bo'lsa, keyingi tadqiqotlarda alohida tarmoqlar, jumladan, oziq-ovqat sanoatini maxsus o'rganish zarurati kuchaydi. Chunki mazkur tarmoq agrar sektor bilan eng yaqin aloqada bo'lgan, aholi kundalik turmushi bilan bevosita bog'langan va davlatning iqtisodiy siyosatida strategik o'rin tutgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sovet davri iqtisodiy modeli, markazlashgan rejalashtirish, hududiy ixtisoslashuv, qayta ishlash quvvatlarining joylashuvi, logistika tizimi va ta'minot mexanizmlarini tushinishda oziq-ovqat sanoati alohida tarixiy tahlil obyektiga aylanadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, oziq-ovqat sanoati tarixini o'rganish iqtisodiy ko'rsatkichlar tarixini tiklash bilangina cheklanmaydi. U, shu bilan birga, mehnat jamoalari shakllanishi, iste'mol odatlari o'zgarishi, hududiy urbanizatsiya, qishloq va shahar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning qay tarzda shakllanganini ham ko'rsatib beradi. Shu bois bu mavzu iqtisod tarixi, ijtimoiy tarix, institutsional tahlil va modernizatsiya nazariyalari kesishgan nuqtada o'rganilishi lozim.

Mazkur maqolaning maqsadi oziq-ovqat sanoati tarixini o'rganishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan asosiy nazariy-metodologik yondashuvlarni tahlil qilish, ularning ilmiy imkoniyatlari va cheklovlarini ko'rsatish hamda tarixiy tadqiqot uchun maqbul kompleks metodologik asosni taklif etishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Oziq-ovqat sanoati tarixini o'rganishga oid ilmiy adabiyotlar mazmunan bir necha yo'nalishga bo'linadi. Birinchi guruh tadqiqotlar iqtisod tarixi doirasida shakllanib, sanoat rivojlanishini ishlab chiqarish hajmi, kapital qo'yilmalar, mehnat unumdorligi va texnologik yangilanishlar bilan bog'liq holda tahlil qiladi. Bu yo'nalishda K. Goldin, Robert Fogel, Douglas Nort va Joel Mokir kabi olimlarning ishlari muhim

metodologik ahamiyatga ega. Ularning tadqiqotlarida tarixiy jarayonlarni miqdoriy ko'rsatkichlar asosida baholash, statistik tahlil va iqtisodiy modellashtirishga alohida urg'u beriladi.

Ikkinchi guruh adabiyotlar ijtimoiy tarix yo'nalishiga mansub bo'lib, unda sanoat taraqqiyoti jamiyatning kundalik hayoti, mehnat munosabatlari, iste'mol madaniyati va ijtimoiy tuzilmalaridagi o'zgarishlar bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Bu borada fransuz "Annallar maktabi" vakillari M. Blok, L. Fevr va F. Brodelning ishlari, shuningdek, E.P. Tompson hamda Sh. Fitspatrik tadqiqotlari alohida o'rin tutadi. Ularning asarlarida tarixiy jarayonlar faqat siyosiy yoki iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali emas, balki inson omili, turmush tarzi va ijtimoiy tajriba doirasida tahlil qilinadi.

Uchinchi yo'nalish industrial jamiyat va modernizatsiya nazariyalariga oid tadqiqotlardir. M. Veber, E. Dyurkgeym, U. Rostou va D. Bell kabi olimlar jamiyat taraqqiyotini agrar bosqichdan industrial bosqichga o'tish jarayoni sifatida izohlaydilar. Ushbu adabiyotlarda sanoatlashuv iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda mehnat taqsimoti, shaharlashuv, boshqaruv tizimi va ijtimoiy tuzilmaning o'zgarishi bilan bog'liq holda yoritiladi.

To'rtinchi guruh adabiyotlar institutsional iqtisod yo'nalishiga mansub bo'lib, iqtisodiy jarayonlarni huquqiy, tashkiliy va boshqaruv institutlari bilan bog'liq holda o'rganadi. T. Veblen, R. Kouz, D. Nort va O. Uilyamsonning asarlarida iqtisodiy rivojlanishning institutsional omillari, mulk shakllari, shartnoma tizimi, transaktsion xarajatlar va boshqaruv mexanizmlariga alohida e'tibor qaratiladi.

Beshinchi yo'nalishni agrar-industrial model va tuzilmaviy o'zgarishlar nazariyasiga oid tadqiqotlar tashkil etadi. U.A. Lyuis, Fey va Ranis, S. Kuznets, K. Klark, J. Furaste va H. Chenery kabi olimlar iqtisodiy taraqqiyotni qishloq xo'jaligi va sanoat o'rtasidagi aloqadorlik, resurslarning tarmoqlar bo'yicha qayta taqsimlanishi va iqtisodiy tarkibning o'zgarishi orqali tushuntiradilar.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat sanoati tarixini o'rganishda alohida nazariy yo'nalishlar muayyan jihatlarni yoritishda samarali bo'lsa-da, ularning har biri mavzuning faqat bir tomonini ochib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil va fanlararo yondashuv metodlaridan foydalanildi. Oziq-ovqat sanoati tarixi iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda o'rganildi. Tadqiqot jarayonida iqtisod tarixi, ijtimoiy tarix, institutsional iqtisod, industrial jamiyat nazariyalari hamda agrar-industrial modelning nazariy imkoniyatlari qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, muammoga kompleks yondashish asosida ishlab chiqarish dinamikasi, mehnat munosabatlari, davlat boshqaruvi va resurslar taqsimoti o'rtasidagi bog'liqlik tahlil etildi. Mazkur metodologiya mavzuni xolis, tizimli va ko'p qirrali yoritish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat sanoati tarixini o'rganishda iqtisod tarixi yondashuvi eng muhim tayanchlardan biridir. Bu yondashuv ishlab chiqarish hajmi, kapital qo'yilmalar, mehnat unumdorligi, mahsulot tannarxi, asosiy fondlar va investitsion dinamikani statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlangan kliometrika va "yangi iqtisod tarixi" yo'nalishlari tarixiy jarayonlarni miqdoriy ko'rsatkichlar asosida qayta baholashda muhim metodologik siljish yasadi. K. Goldin kliometrik yondashuvni iqtisod tarixidagi metodologik burilish sifatida baholagan [12] bo'lsa, Robert Fogel va Duglas Nort ushbu yo'nalishni iqtisodiy nazariya bilan tarixiy empirik materialni birlashtirgan samarali modelga aylantirdilar [10].

Mazkur yondashuv oziq-ovqat sanoati tarixini o'rganishda ayniqsa muhim, chunki bu tarmoq o'lchanadigan ko'rsatkichlarga boy. Ishlab chiqarish hajmi, qayta ishlash quvvati, xom ashyo bilan ta'minlanish, korxonalar soni, energiya sarfi, texnologik modernizatsiya sur'ati kabi ko'rsatkichlar iqtisod tarixi metodlari orqali ilmiy tahlil qilinadi. Duglas Nortning institutsional iqtisodiy o'sishning tayanchi sifatida ko'rishi [18], Joel Mokirning texnologiya va bilim tizimini sanoatlashuvning markaziy omili sifatida talqin qilishi [17] mazkur tarmoq tarixini iqtisodiy va texnologik transformatsiya nuqtayi nazaridan tushunishga yordam beradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat sanoati tarixini chuqur anglash uchun ijtimoiy tarix konsepsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Fransuz "Annallar maktabi" vakillari Mark Blok, Lyusen Fevr va Fernan Brodel tarixiy tadqiqotlarda moddiy madaniyat, kundalik hayot, uzoq davomiylik va ijtimoiy tuzilmalarni markazga olib chiqdi [2; 8; 3]. Bu konsepsiya asosida sanoat tarixi faqat ishlab chiqarish raqamlari emas, balki mehnat jamoalari, turmush darajasi, ta'minot tizimi, iste'mol odatlari va aholi kundalik hayoti bilan bog'liq holda tushuntiriladi.

E.P. Tompson ishchi sinfni "ijtimoiy tajriba" doirasida tahlil qilgan bo'lsa, Shila Fitzpatrick sovet jamiyatining kundalik hayoti va taqsimot tizimlarini ochib bergan [21]. Bu qarashlar oziq-ovqat sanoati tarixiga tatbiq etilganda muhim natija beradi: masalan, ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining o'sishi real ravishda aholi turmush darajasi yaxshilanganini anglatmasligi mumkin; yoki davlat ta'minot tizimi statistik jihatdan samarali ko'rinsa-da, kundalik iste'mol amaliyotida muammolar saqlanib qolgan bo'lishi ehtimol.

Markaziy Osiyo bo'yicha A. Xolid, M. Kamp va J. Sahadeo tadqiqotlari ham ijtimoiy tarixning mintaqaviy transformatsiyalarni tushunishdagi ahamiyatini ko'rsatadi [14].

Industrial jamiyat nazariyalari oziq-ovqat sanoatini umumiy industrializatsiya jarayonining tarkibiy qismi sifatida ko'rishga imkon beradi. Maks Veber sanoatlashuvni ratsionallashuv va byurokratik boshqaruvning kengayishi bilan bog'lagan bo'lsa, Emil Dyurkgeym mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va "organik birlik"ni industrial jamiyatning muhim belgisi deb talqin qilgan [23].

Uolt Rostouning iqtisodiy o'sish bosqichlari nazariyasi sanoatlashuvni "qo'nish bosqichi" sifatida izohlab, kapital qo'yilmalar, texnologik rivoj va infrastrukturani markaziy omil sifatida ko'rsatadi [19]. Daniel Bell esa postindustrial jamiyat nazariyasi orqali sanoatdan xizmatlar va bilim iqtisodiyotiga o'tishni tushuntiradi [1].

Mazkur qarashlarning oziq-ovqat sanoati tarixiga nisbatan qo'llanishi shuni ko'rsatadiki, bu tarmoq faqat agrar mahsulotlarni qayta ishlash bilan cheklanmaydi, balki shaharlashuv, mehnat bozorining shakllanishi, transport-logistika infratuzilmasi va davlat nazorati bilan bog'liq bo'lgan keng modernizatsion tizimning elementi hisoblanadi. Shu jihatdan oziq-ovqat sanoatini tarixiy tahlil qilish umumiy industrial transformatsiyani tushunishning muhim bo'g'iniga aylanadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, oziq-ovqat sanoati tarixini tushunishda institutsional iqtisod konsepsiyasi alohida ilmiy ahamiyatga ega. Torshteyn Veblen institutlarni iqtisodiy xulq-atvorni shakllantiruvchi ijtimoiy oqidalatlar va qoidalar sifatida ko'rgan bo'lsa, Ronald Kouz shartnoma va transaktsion xarajatlar nazariyasi orqali bozordan tashqari boshqaruv shakllarining iqtisodiy mazmunini izohladi [22]. Duglas Nort esa institutlarni "qoidalar va cheklovlar tizimi" sifatida talqin etib, iqtisodiy o'sishni uzoq muddatli institutsional evolyutsiya bilan bog'ladi [18].

Mazkur konsepsiya oziq-ovqat sanoati tarixida ayniqsa muhim, chunki ushbu tarmoqda davlatning roli ko'pincha hal

qiluvchi bo'ladi. Rejalashtirish, standartlash, taqsimot, narx belgilash, xom ashyo bazasini nazorat qilish, korxonalar ixtisoslashuvi va vazirliklararo muvofiqlashtirish institutsional mexanizmlar bilan belgilanadi. Sovet iqtisodiy modeli sharoitida esa bu omil yanada muhimlashadi: ishlab chiqarish bozordagi talab emas, ko'proq davlat rejasi va normativ ko'rsatkichlar asosida boshqariladi. Shu ma'noda institutsional yondashuv oziq-ovqat sanoati tarixining ichki boshqaruv mantiqini tushuntirishga yordam beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat sanoatini o'rganishda agrar-industrial model eng tabiiy yondashuvlardan biridir. Chunki bu tarmoq qishloq xo'jaligidan mustaqil rivojlanmaydi. Aksincha, xom ashyo yetishtirish, uni saqlash, tashish, qayta ishlash va tayyor mahsulotni taqsimlash yagona zanjirning bosqichlari hisoblanadi. U.A. Lyuisning ikki sektorli modeli an'anaviy agrar sektordan industrial sektorga ortiqcha mehnat kuchi oqimini iqtisodiy o'sish manbai sifatida ko'rsatadi [16]. Fey va Ranis esa bu modelni agrar mahsuldorlik o'sishi bilan kapital jamg'arilishi o'rtasidagi bog'liqlik orqali rivojlantirdilar [7].

Sovet iqtisodiy amaliyotida bu yondashuv "agrosanoat kompleksi" shaklida ifodalangan bo'lib, qishloq xo'jaligi, qayta ishlash sanoati, transport va savdo o'rtasidagi aloqadorlik davlat rejalashtirishining muhim obyekti sifatida qaralgan. Bu model oziq-ovqat sanoatini alohida korxonalar tarixi emas, balki ishlab chiqarish zanjiri doirasida tadqiq etish imkonini beradi. Masalan, un zavodi yoki konserva korxonasining tarixini tushunish uchun nafaqat uning texnik bazasini, balki g'alla yoki sabzavot yetishtirish hududlari, tashish

imkoniyatlari, ombor tizimi va ta'minot siyosatini ham bilish lozim.

Saymon Kuznets, Kolin Klark, Jan Furaste va Xollis Chenery tadqiqotlari asosida shakllangan tuzilmaviy o'zgarishlar nazariyasi iqtisodiy taraqqiyotni tarmoqlar ulushining uzoq muddatli almashinuvi orqali tushuntiradi [15; 4; 11]. Bu nazariyaga ko'ra, modernizatsiya jarayonida qishloq xo'jaligining iqtisodiyotdagi ulushi kamayib, sanoat va qayta ishlash tarmoqlarining ulushi oshadi. Mehnat resurslari ham tarmoqlar bo'yicha qayta taqsimlanadi, urbanizatsiya chuqurlashadi va ishlab chiqarish tarkibi murakkablashadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, oziq-ovqat sanoati tarixini o'rganish ko'p qirrali va fanlararo yondashuvni talab etadi. Mazkur sohani tadqiq etishda iqtisod tarixi, ijtimoiy tarix, institutsional iqtisod, industrial jamiyat nazariyalari hamda agrar-industrial model muhim nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar oziq-ovqat sanoati tarixini nafaqat ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, balki mehnat munosabatlari, iste'mol madaniyati, davlat boshqaruvi va hududiy ma'lumotlarni kengroq jalb etish, shuningdek, oziq-ovqat sanoati tarixini mintaqaviy va qiyosiy asosda o'rganish ilmiy samaradorlikni yanada oshiradi.

Tadqiqot natijalari oziq-ovqat sanoati tarixini o'rganishda yagona metodologik model bilan cheklanib qolish yetarli emasligini ko'rsatadi. Shu bois, mazkur mavzuni yoritishda turli nazariy yondashuvlarni o'zaro uyg'unlashtirish maqsadga muvofiqdir. Kelgusida bu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlarda arxiv materiallari, statistik manbalar va hududiy ma'lumotlarni kengroq jalb etish, shuningdek, oziq-ovqat sanoati tarixini mintaqaviy va qiyosiy asosda o'rganish ilmiy samaradorlikni yanada oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. Bell D. The Coming of Post-Industrial Society: A Venture in Social Forecasting. – New York: Basic Books, 1973. – 507 p.
2. Блок М. Апология истории, или Ремесло историка. – М.: Наука, 1986. – 256 с.
3. Бродель Ф. Материальная цивилизация, экономика и капитализм, XV–XVIII вв.: в 3 т. – М.: Прогресс, 1986–1992.
4. Clark C. The Conditions of Economic Progress. – London: Macmillan, 1940. – 504 p.
5. Coase R. H. The Nature of the Firm // *Economica*. – 1937. – Vol. 4, № 16. – P. 386–405.
6. Durkheim E. The Division of Labor in Society. – New York: Free Press, 1997. – 354 p.
7. Fei J. C. H., Ranis G. Development of the Labor Surplus Economy: Theory and Policy. – Homewood (Ill.): Richard D. Irwin, 1964. – 324 p.
8. Февр Л. Бои за историю. – М.: Наука, 1991. – 629 с.
9. Fitzpatrick S. Everyday Stalinism: Ordinary Life in Extraordinary Times: Soviet Russia in the 1930s. – New York: Oxford University Press, 1999. – 288 p.
10. Fogel R. W. Railroads and American Economic Growth: Essays in Econometric History. – Baltimore: Johns Hopkins Press, 1964. – 296 p.
11. Fourastié J. Le Grand Espoir du XXe siècle: Progrès technique, progrès économique, progrès social. – Paris: Presses Universitaires de France, 1949. – 319 p.
12. Goldin C. Cliometrics and the Nobel // *Journal of Economic Perspectives*. – 1995. – Vol. 9, № 2. – P. 191–208.
13. Kamp M. The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism. – Seattle: University of Washington Press, 2006. – 320 p.
14. Khalid A. Islam after Communism: Religion and Politics in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 2007. – 288 p.
15. Kuznets S. Modern Economic Growth: Rate, Structure and Spread. – New Haven: Yale University Press, 1966. – 529 p.
16. Lewis W. A. Economic Development with Unlimited Supplies of Labour // *The Manchester School*. – 1954. – Vol. 22, № 2. – P. 139–191.
17. Mokyr J. The New Economic History and the Industrial Revolution // *The New Economic History and the Industrial Revolution* / ed. J. Mokyr. – Boulder: Westview Press, 1993. – P. 1–127.
18. North D. C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 152 p.
19. Rostow W.W. The Stages of Economic Growth: A Non-Communist Manifesto. – Cambridge: Cambridge University Press, 1960. – 179 p.
20. Sahadeo J. Russian Colonial Society in Tashkent, 1865–1923. – Bloomington: Indiana University Press, 2007. – 352 p.
21. Thompson E. P. The Making of the English Working Class. – New York: Vintage Books, 1966. – 848 p.
22. Veblen T. The Theory of the Leisure Class: An Economic Study of Institutions. – New York: Macmillan, 1899. – 400 p.
23. Weber M. Economy and Society: An Outline of Interpretive Sociology: in 2 vols. – Berkeley: University of California Press, 1978. – 1469 p.